



O'ZBEK TILIDA QO'SHMA SO'Z VA IBORALARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

N.Narziyeva

SamDChTI AL o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilida qo'shma so'z va iboralarning bir-biridan farqlanishi borasidagi ayrim chalkashliklar borasida ba'zi mulohazalar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *leksik birlik, frazeologik birlik, qo'shma so'z, ibora, qo'shma fe'l, erkin so'z birikmasi.*

Nutq uchun xomashyo vazifasini til boyligi o'taydi. Tilning lug'at tarkibi deganda so'zlarni tushunish qadimdan mavjud. Hozirgi tilshunosligimiz lug'at tarkibida so'z bilan bir qatorda, bundan yirikroq, murakkabroq hodisa - ibora ham mavjudligi barchaga ayon.

Ma'lumki, lug'aviy birliklar ikki xil bo'ladi:

1. Leksik birliklar.
2. Frazeologik birliklar.

Frazeologik birlik, ya'ni iboralar Sh.Rahmatullayev ta'biri bilan aytganda «Nutqimiz ko'rki» [7:3] hisoblanadi.

Xo'sh, ibora o'zi nima? Uning so'z, qo'shma so'z va so'z birikmasidan farqi nimada? U tilimizda qanday uslubiy xususiyatlarga ega?

Ibora sodda so'zdan shaklan osongina farqlanadi. Chunki ibora o'zaro grammatik jihatdan bog'langan birdan ortiq mustaqil so'zdan tarkib topadi. Sodda so'zda esa leksik negiz bitta bo'ladi.[7:3]

Iborani qo'shma so'zga qiyoslash va bu ikki hodisani o'zaro farqlab olish ba'zan oson, ko'pincha esa qiyin bo'ladi. Ma'lumki, qo'shma so'zlar ikki xil shaklda - qo'shib va ajratib (asosan, qo'shma fe'llar) yoziladi.

Ibora tarkibidagi leksik negizlar esa ayrim-ayrim so'zlar sifatida grammatik shakllanib, doim ajratib aytiladi va yoziladi. [7:4]

Demak, iborani so'zdan farqlab olish zaruriyati qo'shma so'zning bir turida - qismlari ajratib yoziladigan qo'shma so'zlarda tug'iladi.

Turkiyshunoslikda bo'lganidek, o'zbek tilshunosligida ham qo'shma so'zlar va frazemalar aniq farqlanmay kelinayotir.[10:36] Masalan, S.Usmonov «O'zbek tili» darsligida *nazar sol, umr sur, qo'l qo'y, oh ur* kabi iboralarni qo'shma fe'llar tarkibiga kiritgan edi. U.Tursunov, J.Muxtorovlar ham «Hozirgi zamon o'zbek tili» qo'llanmasida *quloq sol, nazar tashla, ko'ngil qo'y* kabi fe'l frazemalarni qo'shma fe'llar sifatida talqin etgan edilar. Bu olimlar o'zlarining ana shu fikrlariga Sh.Rahmatullayev bilan hamkorlikda nashr etilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» asarida birmuncha aniqliklar kiritishga intilganlar: «ot va otlashgan so'zlar bilan *qo'ymoq, chiqarmoq, olmoq,*



bog'lamoq, ko'rmoq, tutmoq, kechirmoq, tashlamoq kabi fe'llarning birikishidan asli frazeologik birliklar hosil bo'ladi; bunday birliklarni ot + fe'l tuzilishli qo'shma fe'llar qatoriga kiritish to'g'ri bo'lmaydi: *ko'ngil qo'ymoq, nom chiqarmoq, dam olmoq, umid bog'lamoq, yo'l tutmoq, qo'lga olmoq, kun kechirmoq, qadam tashlamoq, fikrga kelmoq, ko'zdan kechirmoq*. Bu xil birliklarning ma'nosi uning tarkibidagi qismlarning to'g'ri ma'nosidan kelib chiqmaydi, balki har ikki qism yaxlitligicha ko'chma ma'no anglatadi».[8:231]

Q.Xoliqov «Hozirgi o'zbek tilida harakat fe'llari» mavzuidagi nomzodlik dissertasiyasida *yo'lga tushmoq, qo'lga olmoq* tipidagi frazeologik birliklarni «harakat fe'lli qo'shma so'zlar» qatoriga kiritgan edi. [9:10]

Qo'shma so'z va frazemalarni izohlashdagi bunday xilma-xillik lug'atlarda, monografik tadqiqotlarda ham keng tarqalgan. Masalan, *ochiq ko'ngil, ochiq ko'ngillik* singari til birliklarini A.Hojiyev qo'shma sifat deb tahlil qilgan bo'lsa,[1:28] Sh.Rahmatullayev hamda M.Sodiqovalarning lug'atlarida bunday birliklar frazema sifatida qayd qilingan. B.Madaliyev *qo'li yengil, qo'li ochiq, ichi qora, qo'li egri, xo'ja ko'rsin, bag'ri tosh, og'zi bo'sh* kabi frazemalarni «har ikkala komponenti ko'chma ma'noda qo'llangan qo'shma so'zlar» deb tasnif qilgan.[2:36]

Qo'shma so'zlarning frazemalar bilan munosabatini tadqiq etgan N.Mamatov esa quyidagi xulosaga kelgan edi: «1) frazeologik birikmalar semantik jihatdan so'zga o'xshash bo'ladi; 2) ular mustaqil shakllangan so'zlardan tashkil topgani uchun so'z birikmasining barcha grammatik xususiyatlariga ega bo'ladi va ana shu xususiyatlari bilan qo'shma so'zdan farq qiladi; 3) shu kungacha frazeologik birikmalar qatoriga qo'shib kelingan *qo'li ochiq, qattiqqo'l, qo'yko'z, zeb bermoq, jar solmoq* tipidagi ikki komponentli birikmalar idiomatik qo'shma so'zlardir. Ammo *qo'lga tushmoq, holdan toymoq* tipidagi birikmalarni, garchi semantik jihatdan yaxlit bo'lsa ham qo'shma so'z deb bo'lmaydi, ulardagi jonli sintaktik munosabat bunga yo'l qo'ymaydi».[3:112]

Bugungi kunda ham tilshunoslik oldida turgan muammolardan biri frazeologik birlik va frazeologik gaplarni qo'shma so'zlardan farqli tomonlarini ko'rsatishdan iborat. Chunki ba'zi bir adabiyotlarda ular turlicha talqin qilinmoqda. Xususan, hozirda amalda bo'lgan maktab darsliklarimizda «*oqko'ngil*», «*og'iroyoq*», «*sofdil*», «*toshbag'ir*» kabi birliklar qo'shma sifat tarzida, «*nazar tashlamoq*» iborasi qo'shma fe'l sifatida talqin qilingan.[4:199] Vaholanki, bu birliklar Sh.Rahmatullayev lug'atida iboralar sifatida keltirilib, tahlil qilingan.

Bu holat esa o'quvchilarni bu birliklarni farqlashda ikkilanishlariga olib keladi. Bizningcha, yuqoridagi birliklar zamirida ko'chma ma'no yotganligi uchun ularni qo'shma so'z emas, balki ibora sifatida izohlash zarur. Qo'shma so'z bilan iborani shakliga qarab emas, balki lug'aviy ma'no anglatishi jihatidan farqlash zarur.

«Ko'rinadiki, frazeologik birliklarni qo'shma so'zlar, erkin so'z birikmalari, tarkibli atamalar singari til birliklaridan farqlash o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. ...Bizningcha, bu muammo qozoq tilshunosligida



bo'lgani singari o'zbek tilshunosligida ham maxsus tekshirish obyekti bo'lmog'i zarur.[10:39]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. -Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1963.
2. Madaliyev B. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma so'zlar. -Toshkent: Fan, 1966.
3. Mamatov N. O'zbek tilida qo'shma so'zlar. -Toshkent: Fan, 1982.
4. Mengliev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – Toshkent, 2008.
5. Mahmudov N. va boshq. Ona tili. - Toshkent, 2009.
6. Rahmatullaev SH. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, -T.: O'qituvchi, 1978. - 408 b.
7. Rahmatullaev SH. Nutqimiz ko'rki. -Toshkent, 1970.
8. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1992.
9. Xalikov K. Glagoly dvijeniya v sovremennom uzbekskom yazыke, AKN. - Samakand, 1967. -s.10-27.
10. Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. -Samarqand, 2007.